

AMIR TEMUR-BUYUK DAVLAT ARBOBI VA SARKARDA

Ashirova Noila Xasan qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

900310939 noilaashirova00@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada Amir Temurning harbiy san`ati, Amir Temur davridagi harbiy yurishlar va o`sha davrdagi vatanparvarlik hissi qay darajada ekanligi, jang maydonini tanlashga katta e`tibor berilganligi yoritilgan.*

Kalit so`zlar: *Buyuk Temur, Movorounnahr, Mo`g`ullar, Temur tuzuklari, Zafarnoma*

Аннотация: *В этой статье освещается военное искусство эмира Тимура, военные походы эпохи эмира Тимура и степень патриотизма того времени, уделяется большое внимание выбору места сражения.*

Ключевые слова: *великий Тимур, Мавераннахр, монголы, тузуки Тимура, Зафарнома.*

Annotation: *This article covers the military art of Amir Temur, the military campaigns under Amir Temur, and to what extent the patriotic feeling of the time was, with great emphasis on the choice of Battlefield.*

Keywords: *great Timur, Movorounnahr, Mongols, Temur traps, Zafarnama.*

KIRISH

Amir Temur, o`z davri va zamonasiga ko`ra markazlashgan yirik davlatga asos soldi va bu bilan xalqiga, yurtiga beqiyos hizmat qildi. Buni anglab yetish uchun Amir Temur katta siyosat maydoniga kirib kelmasdan burun mamlakatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy ahvolni ko`z oldimizga keltirsak, shuning o`zi kifoya. Qudratli buyuk davlat barpo qilgan Amir Temur bunday davlatning iqtisodiy jihatdan ravnaq topishini g`alabalarga olib keluvchi xarbiy yurishlar bilangina ta`minlab bo`lmasligini yaxshi his etardi. Movarounnahrning markazida, strategik jihatdan qulay joylashgan Samarqand shaxrini poytaxt sifatida tanlar ekan, u Buyuk Ipak yo`lida joylashgan, Uzoq Sharqni musulmon dunyosi hamda Yevropa bilan bog`lovchi bu shahar ulug`vor inshoatlari, dabdabali saroylari, saroy ahlining tantanavor kiyimlari bilan hayratga solishi lozim, deb hisoblardi. Bundan tashqari, Samarqand azaldan ilm-fan va ma`rifat markazi bo`lib kelgandi. Mo`g`ullar davrida shaharning ilmi va madaniy an`analari buzilgandi. Shu bois hukmdor shaharning o`sha an`analarini qayta tiklash orqali yuqorida ko`zlagan maqsadiga erishishga jazm qildi. Amir Temur davlatining barcha hududlarida qattiq intizomga bo`ysundirilgan aniq va tezkor yo`l-aloqa hizmati joriy qilingan. Mubolag`asiz aytish mumkinki, bunday xizmat Amir Temur va Temuriylar davlatining ildam taraqqiyotiga olib keldi. Uzoq mamlakatlardan karvon yo`llari bo`ylab kelgan savdogarlar o`zlari bilan faqat mollarigina emas, balki boshqa mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, odatlari va dini haqida yangi-yangi

habarlar keltirdilar¹Uzoq mamlakatlardan karvon yo'llari bo'ylab kelgan savdogarlar o'zlari bilan faqat mollarigina emas, balki boshqa mamlakatlarning iqtisodiy ahvoli, turmush tarzi, odatlari va dini haqida yangi-yangi habarlar keltirdilar. Ular ayni vaqtda madaniyat tarqatuvchilar ham edilar, chunki qo'lyozma kitoblar, qog'oz olib kelishar, boshqa xalqlardan eshitgan hikoya, afsona va rivoyatlarni so'zlab berardilar. Har qanday davlat o'z faoliyatida ma'lum ijtimoiy guruhga tayanadi, hokimiyatni qo'lga olgandan so'ng esa o'sha ijtimoiy guruhning maqsad va manfaatlarini himoya qiladi. Temur va temuriylar davlati ham bundan mustasno emas, albatta. U ham aslida, mohiyati bilan, mol-mulk egalarning davlati bo'lgan...² Temur siyosatdon va mohir arbob edi. U o'zidan avval o'tgan hukumdorlardan farqli o'laroq davlat va mamlakatni boshqarishda bir yoki ikki tabaqaga emas, balki aholining barcha tabaqalariga suyandi. Amir Temur tuzgan markaziy davlat tizimiga kelsak, uni bor-yo'g'i yetti vazir: 1) mamlakat va raiyat vaziri, 2) sipoh vaziri, 3) moliya ishlari vaziri, 4) saltanat ishlarini yurituvchi vazir; beshinchi, oltinchi, yettinchi vazirlar sarhad vazirlari boshqarardi. Lekin ularning kim va nimaligi, ya'ni zimmasiga qanday vazifalar yuklatilganligi aniq ma'lum emas. «Tuzuklar»da aytilishicha, bu uch vazir sarhadlar vaziri deb atalgan va tobe mamlakatlarga tegishli ishlar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xususan, «ular mazkur yerlardagi moliyaviy muomalalarni va keladigan daromadlarni boshqaruvchisi», deyilgan. Balkim vaziri a'zam qaramog'ida shu ishlar bilan shug'ullanadigan uch vazirdan iborat hay'at bo'lgandir? «Zafarnoma»da devoni adl, devoni quzzot, devoni mansab degan atamalar uchraydi. Devoni adl va devoni quzzot, o'z-o'zidan ko'rinib turib- di, adliya ishlari bilan shug'ullangan. Demak, beshinchi vazir adliya ishlari bilan mashg'ul bo'lgan. Devoni mansabga kelsak, u podshoh saroyida va boshqa yerlarda bo'lib turadigan har qanday voqea va hodisalardan xabardor bo'lib turish, mansabdorlarning faoliyatini kuzatish ishlari zimmasiga yuklatilgan maxsus devon bo'lsa kerak. Shunday muassasa G'aznaviylar, Somoniylar va Xorazmshohlar davlatida ham bo'lgan va devoni mushrif deb atalgan. Shubhasiz, bunday devon Temur va Temuriylar davlatida ham bo'lgan, albatta. Demak, oltinchi vazir Devoni mansab tepasida turgan. Yana shu ham ma'lumki, o'rta asr feodal davlatlari faoliyatida, (Amir Temur davlati bundan mustasno emas) mamlakatlararo savdo va elchilik munosabatlari ham alohida o'rin tutgan. Amir Temur hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muhandislarni (sakkizinchi toifa) ham davlat tayanchi hisoblab, ularning saltanat korxonasi rivojiga beqiyos xizmat qilishini teran anglagan. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda, deb davom etadi u, - bemorlarni va tabiblar bilan ittifoqda, davolatardim. Munajjimlardan sayyoralarning qutlug' va qutsiz kunlari, ularning harakati va aylanishini aniqlab olardim. Muhandislar bilan ittifoqda oliy imoratlar bino qilib, bog'-u bo'stonlarning tarhini (loyihasini) chizdirdim». To'qqizinchi toifadagilar muhandislar (hadis olimlari) va rivoyat aytuvchilar (tarixshunoslar) bo'lib, Amir Temur bu toifani ham o'ziga yaqin tutgan, ul zakovat va bilimlari- dan foydalangan. Buyuk Amir mazkur e'zozli kishilar haqida bunday deydi: «Payg'ambarlar va valiyalar

¹Ahmedov, Bo'riboy. Amir Temurni yod etib.-T. F., 2018. -10,11 bet

² Amir Temur Jahon tarixida. Sharq. T. 2001 ---111,112- bet

haqidagi qissalarni, avval o'tgan podshohlar to'g'risidagi xabarlarini, ularning saltanat taxtiga qanday yetishganliklarini, davlatlarining qanday sabablarga ko'ra zavol topganligini ulardan so'rab bilardim. Har qaysisining qissalari va xabarlari, ishlari va so'zlarini eshitib tajribam ortdi. Olamda bo'layotgan voqealarni ulardan eshitardim va olam ahvolidan xabar topardim». Qonun chiqaruvchi tizim qurultoy atalib, u asosan yirik turk – mo'g'ul qabilalarining yo'l boshchilari ishtirokida o'tgan va oliy hukumdor istagan paytda chaqirilgan. Qurultoy urush va sulh, oliy hukumdorning saylanishi kabi masalalarni muhokama qilgan va qonunlashtirgan. Ijroiya tizimi devonlar va boshqa oliy davlat idoralaridan iborat bo'lgan. Davlatning ijroiya tizimi qurultoy qabul qilgan qarorlarni, podshoh farmonlarini va davlatning kundalik yumushlarini hayotga tatbiq etgan. ³ Amir Temur 1371-1404 yillar orasida Mo'g'uliston, Eron, Ozarbayjon, Iroq, Shom (Suriya, Hindiston, Gurjiston, Armaniston, Kavkaz orti o'lkalari) ustiga harbiy yurishlar qildi. Biz uzoq o'tmish, eski zamon ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning qonuniyatchi va o'sha zamonlardagi hukmron mafkuradan kelib chiqadigan bo'lsak, bunday urushlarning obektiv qonuniyatlari borligini ochiq anglaymiz.

Harbiy san'at tarixi sohibqiron Amir Temurni haqli ravishda jahonning eng buyuk sarkardalaridan biri sifatida e'tirof etadi. Buyuk bobomizning harbiy iste'dodi asosan ikki yo'nalishda: mohir harbiy tashkilotchi va atoqli sarkarda sifatida yorqin namoyon bo'lgan. Amir Temur tuzgan armiya o'ta intizomli bo'lib, sarkarda muhoraba chog'i qo'shin qismlarini san'atkorona boshqarishga, jang taqdiri hal bo'ladigan joylarga harbiy kuchlarni o'z vaqtida ustalik bilan yo'llashga, har qanday to'siq va g'ovni tadbirkorlik bilan oshib o'tishga, lashkarning jangovar ruhini zarur darajada saqlashga muvassar bo'lgan. Qo'shinlar tarkibi Movarounnahr, Dashti Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Xorazm, Mozandaron, Jata singari joylardan yig'ilgan askarlardan iborat edi. Qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilinib, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashib borgan, armiya eng ilg'or qurol-aslahalar bilan qurollangan, qismlar bir-biridan kiyim-boshi, bayrog'i va tug'i bilan farqlangan. Bu jang paytida qo'shinni boshqarishda qo'l kelgan. «Temur tuzuklari»da ta'kidlanishicha, safar chog'ida oddiy askarlarning har o'n sakkiztasiga bitta chodir berilgan. Har bir jangchi ikkita ot, yoy, sovut, qilich, juvoldiz, qop, o'nta nina, arra va teri xaltaga ega bo'lgan. Sara jangchilarning har beshtasi bir chodirga joylashgan. Ularning har biri dubulg'a, sovut, qilich, o'q-yoy, sadoq va buyruqda ko'rsatilgan miqdorda ot bilan ta'minlangan. Harbiy san'at sir-asrorini bilgan, dushman safini parokanda qilish yo'l-yo'rig'ini yaxshi egallagan, mushkul paytlarda dadil harakat qiladigan, hech qanday to'siqdan tap tortmaydigan, qo'shinda sodir bo'lishi ehtimoldan xoli bo'lmagan tartibsizlikni vaqtida bartaraf eta oladigan yovqur va mohir jangchilargina Temurbek tomonidan lashkarboshilikka qo'yilgan. Sohibqiron bobomiz o'z qo'shinining harbiy takomiliga katta e'tibor berib, "amir va amirul-umaro", ya'ni "bosh amir" kabi yuqori darajali harbiy unvonlar joriy etadi. Shu kabi oliy darajali unvonlarga ega bo'lgan iqtidorli sarkardalarga u hatto viloyat hokimligi yoki noibligini in'om etgan. Jangda bahodirlik

³Bo'ribov Ahmedov AMIR TEMUR DARSLARI. Sh. Toshkent—2001 - 50,51,57,58,-bet

ko'rsatib g'alaba qozongan amir uchun in'omlar ham belgilab qo'yilgan. Qaysi amir biron qo'shinni yengsa yoki viloyatni fath etsa, u tug', nog'ora, bahodirlik martabasi, davlat kengashlariga kirish huquqi hamda biron sarhadning noibligi bilan siylangan. Har bir zobit jang qilish uslublarini yaxshi bilishi farz sanalgan. Oddiy navkar nizomni qat'iy bajarishga majbur bo'lib, jangda u ayovsiz va dovyurak bo'lishi, omonlik istagan dushmanga yumshoq muomala va adolatli bo'lishi lozim edi. Taktika jihatidan Amir Temur armiyasi qo'shini yettita taktik qism-kuchlarga bo'lingan, razvedka a'lo darajada yo'lga qo'yilgan, qismlarning janggohda zarur darajada harakat qilishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, ularni jang chog'ida boshqarishga alohida e'tibor qaratilgan. Qismlararo aloqa yuqori saviyada bo'lishi, harbiy boshliqlarning to'g'ri tanlanganligi muhoraba natijasiga samarali ta'sir ko'rsatgan. Klavixoning ta'rifiga ko'ra, temuriy lashkarboshi tinchlik chog'ida zarhal ip bilan tikilgan havorang satin ko'ylak kiygan. Uning boshida dur hamda boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan bo'rk bo'lgan. Bo'rkning ostidan uch qator qilib o'rilgan ikki kokil yelkaga tushib turgan. Elchi bu yo'sinda o'rilgan sochlar Temurbek askarlarining nishoni ekanligini alohida qayd etadi. Yurish oldidan Sohibqiron arkoni davlat, vazirlar, sarkardalar, amirzodalar, beklar va amirlarni harbiy kengash — mashvaratga to'plagan, so'ngra askar yig'ish uchun maxsus buyruq e'lon qilingan, qismlar harbiy ko'rikdan o'tkazilgan. Amir Temurning harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan yana biri qo'shin qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va, aksincha, g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism — kanbulning joriy etilishidir. Amir Temur qo'shinini Jahongir Sayfuddin va Purhusayn barloslar, Oq Bug'a, Usmon Abbos, Muhammad Sulton Qamariy, O'rus Bug'a, Hamza Sulduz, Amir Murizoda, Muhammad Qazg'on, Sariq Atka va Muzaffar Uch Qaro kabi janglarda shuhrat topgan mahoratli va jasur kishilar boshqargan. Sohibqiron Amir Temur ana shu tarzda o'z zamonining kuchli va eng jangovar lashkarini tashkil qilishga muvaffaq bo'lgandi. Dushman mudofaasini mohirona yakson qilish, g'animlarning yirik shaharlariga qo'qqisdan zarba berish, mustahkam qal'a, qo'rg'on va hisorlarni uzoq muddat qamal qilish, yov kuchlarini iloji boricha keng ko'lamda qurshovga olish, raqibni ta'qib qilish kabi strategik rejalarini ko'zlab ish yuritish Sohibqironga faqat g'alaba olib kelardi. Sohibqiron yaratgan qudratli armiya jahonning o'sha vaqtdagi eng ilg'or armiyasi sifatida tan olingani, keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgani, bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza vazifasini o'tagani hamda harbiy san'at tarixi sifatida keng ko'lamda o'rganilgani bejiz emas.

Shubhasiz, bizning bugungi armiyamiz - Vatanimiz himoyachilari uchun ham buyuk bobomiz yaratgan armiya qo'shinlarining yovqurligi, bahodir jangchilarning dovyurakligi chinakam ibrat timsolidir. Amir Temur davridagi ruhiy va jismoniy mashqlar Amir Temurning harbiy yurishlari sobiq sovet tarixshunosligida ushbu harbiy yurishlarga bir yoqlama barchasi vayronkor, bosqinchilik yurishlari degan salbiy baho hukmr oshirilmagan. Bu haqda tarixshunos B.V.Lunin, olimlar Amir Temurning chet ellarga qilingan harbiy yurishlariga bir xil baho bergani, bu yurishlarning chuqur tahlil etilmaganidan dalolatdir, to'g'ri yozgan edi. B.Ahmedov Amir Temurning harbiy yurishlariga tavsif bergan: Hindistonga qilingan harbiy yurishni, garchand uni islomni himoya qilish deyilgan bo'lsa

bo'lmashligini va boshqa tomondan Eron, Ozarbayjon, Iroq, tamoman bosqinchilik yurishlari emasligining sabablari xususidagi mulohazalari e'tiborga molikdir.

Olim Amir Temurning harbiy sarkardalik mahoratiga, jahon tarixida tutgan o'rniga munosib baho berish uchun "harbiy yurishla amalga oshirish zarur, degan xulosa kelib chiqadi. Ingliz olimasi X.Xukxem "yetti iqlim sultoni" asarida harbiy yurishlaridan ko'zlangan maqsad Buyuk ipak yo'lini, bu orqali esa savdo ilm-fan taraqqiyotini ham rivojlantirish uchun sa'y Yozma manbalar, munshoat (elchilik maktublar)ini sinchkovlik bilan o'rganilishi muammoning asl sabablarini aniqlashga yordam beradi. Harbiy yurishlarga baho berishda ushbu yurishlarning sababi va natijalarini tahlil etish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki, O'rta Osiyoda Temuriylar davlatiga asos solgan, jahon tarixiga buyuk sarkarda mohir va istedadli davlat arbobi nomini olgan, sharqda « Buyuk Jahongir» g'arbda esa « Temurlang» nomi bilan mashxur bo'lgan Amir Temurning hayoti, ijtimoiy siyosiy faoliyati, zafarli harbiy yurishlari haqida ko'p asrlar moboynda jahonning juda ko'plab olimlari tomonidan o'nlab asarlar yozib kelinmoqda. Ana shunday asarlar arab, ispan, fransuz, nemis, venger, rus hamda o'zbek tarixchilari tomonidan yozilgan. Bundan tashqari Temur bobolar yurti bo'lmish Mavraunnahrda markazlashgan davlat tuzish yo'lida tinimsiz kurashdi va buning uddasidan chiqqan fattoh, buyuk lashkarboshi Temur bir vaqtning o'zida dushmanlarga ofat, o'z amirlariga qattiq qo'l raxbar, o'z halqiga padari buzrukvor edi. Aksini olib qaraydigan bo'lsak Temur davlatning obro'si, sharafi, manfaati yo'lida o'ta qattiqqo'l edi. U bunaqa payta hatto o'z urug'larini ham ayamagan. Davlat ishlarida ham g'oyat mustahkam, sobit va bardavom bo'lgan. Bulardan kelib chiqib o'ylashimiz mumkunki Temur birlashgan, mustaqil, iqtisod va madaniyati taraqqiy etuvchi davlat tarafdori bo'lgan...

O'zining hulq atvori haqida aytadigan bo'lsak yolg'onni yomon ko'rar, bilimga muhabbat qo'yishdan mahrum emas edi. Shu sabab ham uning huzurida shoirlar, mashshoqlar, olimlar, mistik (so'fiylar) ko'p bo'lganligini yevropa tarixchilari o'z asarlarida keltirib o'tganlar. Yuqoridagilardan kelib chiqib o'z shaxsiy fikrimizni aytishimiz lozimki Temur amaliy ishlarni qilishda o'ta shijoatli, yurshlarga o'ta tashna bo'lgan ammo anglab olish mumkun bo'lgan aniq maqsad mavjud bo'lmagan degan qarorga keldik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ahmedov.B. Amir Temurni yod etib.-Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi «Fan» nashriyoti,2018.
- 2.Amir Temur Jahon tarixida. «Sharq». Toshkent—2001.
3. Ahmedov.B. AMIR TEMUR DARSLARI. «Sharq».Toshkent—2001.
- 4.Ahmedov B. Amir Temur. Tarixiy roman. 1995- 294b.
- 5.Yetti iqlim sultoni. Rus tilidan To'rabekov.H, Sokin.Sh tarjimasi. -Toshkent: Adolat,1999